

ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH JARAYONI BUDJETINI TUZISH TARTIBI

U.A.Shirinov – SamISI, dotsent

Annotatsiya: Maqolada ishlab chiqarish segmentlari va sotish jarayoni segmentlari bo'yicha budgetlar tuzish tartibi hamda ketma ketliklari bayon qilingan..

Kalit so'zlar: budget, ishlab chiqarish budgeti, sotish jarayoni budgeti, segmentar hisobot, boshqaruhi hisobi.

Аннотация: В статье описан порядок и последовательность составления бюджетов производственных сегментов и сегментов процесса продаж.

Ключевые слова: бюджет, производственный бюджет, бюджет процесса продаж, сегментный отчет, управленческий учет.

Abstract: The article describes the procedure and sequence of budgets for production segments and sales process segments.

Key words: budget, production budget, sales process budget, segmental report, management accounting.

Bugungi kundagi zamонавиј корхоналар о'зларининг даромадларини корхона бoshqaruvini oqilona tashkil etish orqali oshirishmoqda. Korxonalarda bo'layotgan jarayonlarni chuqur tahlil qilib maqbul qarorlarni qabul qilinishi korxonada ishlab chiqarish hamda sotish jarayonlarini samaradorligini oshirishga hizmat qilmoqda.

Korxonalarda har bir jarayonni o'rganish ularni alohida segmentlarga ajratishni talab qilmoqda. Bu esa o'z navbatida har bir jarayon bo'yicha segmentar hisobotlarini tuzishni talab qilmoqda.

Korxonalarda budget tuzish jaroyonlari haqida ko'pgina iqtisodchi olimlar o'z qarashlarini ilgari surishga jumladan, K.B.Urazov, A.X.Pardayev, U.A.Shirinov, Sh.Usmonov, F.Rahmatullayev, S.S.Kenjayeva, S.Sayfiyev, I.Isroilov va boshqalar.

Mahsulot ishlab chiqarish byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotni tuzish korxonada ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu byudjetni xarajat markaziga kiruvchi ishlab chiqari bo'limi tuzadi. Mazkur hisobotning ahamiyati shundaki, uning asosida tayyor mahsulotlarni sotish rejasи va ular me'yoriy qoldig'ini ushlab turish rejasini bajarilishi ta'minlanadi. Mazkur hisobot ushbu rejalar bajarilishi ta'minlanganlik holatini oldindan nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu hisobotni hisobot oyi boshidan har kuni (kerak bo'lsa har smenada) quyidagi shaklda tuzish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

Ushbu segmentar hisobotni tuzishga asos bo'lib korxona buxgalteriyasiga topshiriladigan ishlab chiqarish hisobotlari, tayyor mahsulotlar

bo'yicha hisob registrlari, ombor mudirlari hisobotlari hamda ombor hisobi kartochkalari ma'lumotlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish byudjeti bo'yicha tuzilgan segmentar hisobot asosida korxona rahbariyati xarajat markaziga kiruvchi ishlab chiqarish sexlari faoliyatiga baho beradi, ularga doir boshqaruv qarorlarini qabul qiladi hamda rag'batlantirish yoki jazo tadbirlarini belgilaydi.

1-jadval

Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish byudjeti ijrosi bo'yicha segmentar hisobot

Mahsulot nomi	Ishlab chiqarish rejasি		Haqiqatda ishlab chiqparildi		Ishlab chiqarish reja bajari-lishi		Reja bajarilishidan chetlanish	
	Oy boshi-dan	Shu kunda	Oy boshi-dan	Shu kunda	Oy boshi-dan	Shu kunda	Oy boshi-dan	Shu kunda
A mahsulot								
B mahsulot								
.....								
Jami								

Ishlab chiqarish rejasи bajarilishi uchun zarur materiallar xaridi va ular me'yoriy qoldig'i byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotni tuzish. Ushbu hisobotni xarajatlar markazi va ta'minot markazi hamkorlikda tuzadi.

2-jadval

Ishlab chiqarish rejasи bajarilishi uchun zarur materiallar xaridi va ular me'yoriy qoldig'i byudjeti ijrosi bo'yicha segmentar hisobot

Materialt nomi	Ishlab chiqarish hajmi rejasи		Haqiqatda mavjud materiallar qoldig'i		Ishlab chiqarish reja bajarilishi ta'minoti foizi		Reja bajarilishi ta'minotidan chetlanish	
	Oy boshi dan	Shu dekada da	Oy boshi ga	Shu dekada boshiga	Oy boshi ga	Shu dekada boshiga	Oy boshiga	Shu dekada boshiga
A material								
B material								
.....								
N material								

Mazkur hisobotning ahamiyati shundaki, uning asosida keyingi hisobot davrlarida belilangan ishlab chiqarish rejasini bajarilishi uchun tegishli material zahiralarini ta'minlanganligi, shuningdek, materiallar xaridi va omborlarga kirimi oldindan nazorat qilinadi. Ushbu segmentar hisobotni tuzishga asos bo'lib korxona buxgalteriyasida yuritiladigan materiallar hisob registrlari, ombor mudirlari hisobotlari hamda ombor hisobi kartochkalari ma'lumotlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish hajmini ta'minlovchi materiallar

xaridir va qoldig'i byudjeti bo'yicha tuzilgan segmentar hisobot asosida korxona rahbariyati ta'minot va xarajat markazlari faoliyatiga baho beradi, ularga doir boshqaruv qarorlarini qabul qiladi hamda rag'batlantirish yoki jazo tadbirlarini belgilaydi.

Ishlab chiqarish rejasi bajarilishi uchun zarur materiallar xaridi va ular me'yoriy qoldig'i byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotni hisobot oyning har dekadasida quyidagi shaklda tuzish maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

Foyda va zararlar ko'rsatkichlari byudjeti ijrosi bo'yicha segmentar hisobot. Ushbu hisobotni bosh ofis talabiga ko'ra foyda markaziga kiruvchi barcha bo'limlar, chunonchi reja-iqtisod va moliya bo'limlari hamda buxgalteriya hamkorlikda tuzadi. Ushbu hisobotni choraklar va ularning oylari kesimida quyidagi shaklda tuzish maqsadga muvofiqdir (3-jadval).

3-jadval

Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari byudjeti ijrosi bo'yicha segmentar hisobot _____ yil _____ oyi uchun

Ko'rsatkichlar	Biznes reja		Haqiqatda		Reja bajari-lishi foizi		Reja bajarilishidan chetlanish	
	Chora kuchu n	Shu oy uchun	Chorak boshi-dan	Shu oyda	Chora k boshi-dan	Shu oyda	Chorak boshi-dan	Shu oyda
Sof tushum								
Sotish tannarxi								
Yalpi foyda								
Sotish xarajatlari jami								
*sotish xarajatlari								
*boshqaruv xarajatlari								
*boshqa operasion xarajatlar								
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari								
Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)								
Moliyaviy faoliyat daromadlari								
Moliyaviy faoliyat xarajatlari								
Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar)								
Favquloddagi foyda								
Favquloddagi zararlar								
Soliqqacha foyda								
Foyda solig'i								
Sof foyda								

Ushbu segmentar hisobotni tuzishga asos bo'lib korxona bux-galteriyasida yuritiladigan barcha daromadlar va xarajatlar, soliqlar va to'lovlar hisob registrlari, hisoblanadi. Mazkur hisobot asosida korxonaning barcha markazlari faoliyatiga baho beriladi, ularga doir boshqaruva qarorlarini qabul qilinadi, rag'batlantirish yoki jazo tadbirlarini belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda ishlab chiqarish jarayonlari hamda sotish jarayonlari budgetlarini tuzish korxona faoliyatida qaysi nuqtalarida xatoliklar mavjudligi, belgilangan rejalarini kelajakda haqiqiy bajarilgan ishlar bilan solishtirish orqali qaysi budgetda og'ishlarning mavjudligi aniqlashimiz va bu og'ishlar korxona faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'rganishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida qaror qabul qiluvchilar uchun axborot manbai bo'lib hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.** Murodjon o'g'li, Usmonov Sherzodbek. "Aksionerlik jamiyatlarida pul mablag'larining tashkil etilishi: Usmonov Sherzodbek Murodjon o'g'li." *Лучшие интеллектуальные исследования* 22.3 (2024): 67-71.
- 2.** Tashmuratovich, Eshmuradov Ulug'bek. "Agroklasterlar sotish jarayonlarida segmentar hisobtlarning ahamiyati." *Научный Фокус* 1.7 (2023): 790-795.
- 3.** Urazov, K. B. (2004). Buxgalteriya hisobi va audit. *Toshkent–2004*.
- 4.** Rahmatullayev, F. Yu. "Boshqaruva hisobida rejalshtirish va byudjetlashtirish." *Экономика и социум* 10 (89) (2021): 231-234. Urazov, K. B., & Shirinov, U. A. (2023). Need and significance of consolidated financial statements. *Экономика и социум*, (6-2 (109)), 577-579.
- 5.** Ширинов, У. А. (2022). Почта хизматларининг ҳисоб ва аудит объекти сифатидаги таснифий асослари. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 804-809.
- 6.** Sayfiyev, S. S. (2023). Agroklasterlarida segmentlar hisob va hisoboti takomillashtirish. *Journal of marketing, business and management*, 2(5), 1-4.Ширинов, У. А. (2022). Алоқа хизматларини қўрсатувчи субъектларда аудитнинг долзарб масалалари. *Архив научных исследований*, 2(1).
- 7.** Ширинов, У. А. (2022). Мобил алоқа хизматларидан олинадиган дарomadlar ҳисобини takomillashтириш. *экономика и социум*, (6-2 (97)), 800-803.